

## TA'LIM SOHASIDA OLIB BORAYOTGAN ISLOHOTLAR

*Isoqova Sitara Shamsiddin qizi*

**Kirish.** Bugungi kunda bizga ma'lumki mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shadigan malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bevosita ta'lim tizimining rivojiga bog'liq bo'lib, bu borada mustaqil fikrlaydigan, ijodkor, tadbirkor, tashabbuskor shaxsni voyaga yetkazish bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu vazifalar respublikamiz Prezidentining qator farmon va qarorlari da o'z aksini topgan. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida zamonaviy bilim va yangicha yondashuvlarga ehtiyoj mavjud. Shu bois, ta'lim sifatini oshirishda o'quv jarayonini davr talablariga mos holda tashkil etish, davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlarini takomillashtirish, yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish, zamonaviy innovasion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, mavjud muammolarni bartaraf qilish ertangi istiqboldagi yutuqlarimiz kafolatidir. Fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ko'plab ilmiy bilim, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib boradi. Bu, bir tomondan, fantexnikaning yangi sohalari rivojlanishi tufayli uning differensiallashuvini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayoni vujudga keladi. Bunday sharoitda malakali pedagoglarga bo'lgan talab ortib, fanning fundamental asoslari, pedagogika va psixologiya metodlarini mukammal egallagan, kasbiy tayyorgarligi yuqori bo'lgan hamda zamonaviy innovasion pedagogik va axborot texnologiyalarini amaliyotda qo'llay oladigan ijodkor pedagoglarni tayyorlash talab etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ta'limga alohida to'xtalib ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir deb takidlagani ta'limga davlat tomonidan alohida e'tibor qaraliyotganini ko'ramiz. Shuning uchun ushbu sohada boshlagan islohotlarimizni davom yettirishimiz, ta'lim dargohlariga borib, o'qituvchi va murabbiylar bilan ko'proq muloqot qilib, o'quv-tarbiya ishlari

sifatini oshirish bo'yicha ular qo'ygan masalalarni birgalikda hal yetishimiz kerak. 2023 yilga yurtimizda "Insonga ye'tibor va sifatli ta'lim yili", deb nom berishni taklif qilaman deb ta'kidladi. Prezident parlamentga murojaatnomasida ta'lim masalasiga alohida urg'u qaratdi. Bu albatta o'sib kelayotgan yoshlarda ilmga bo'lgan qiziqishlarga keng yo'l ochildi desak mubolag'a bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida mamlakatimizda keng ko'lamli ishlar olib borilmokda. Ma'lumki, zamonaviy hayotni bugungi kunda ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ayniqsa, rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi eng asosiy vazifa sifatida belgilanmoqda. Bunga sabab mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, har bir xalq, har bir millatning ertangi kuni bugun voyaga yetayotgan avlod taqdiri bilan uzviy bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning "taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir" degan so'zlarida o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ham, O'zbekistonda ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag'lar yo'naltirilmokda.

Ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: Ta'lim va tarbiyaning uyg'unlikda olib borilishi; ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xususiyatga ega ekanligi; ta'limning uzluksizligi, uzviyligi va izchilligi; 12 yillik (6 yoshdan 7 yoshgacha bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlash hamda o'n bir yillik umumiy o'rta va o'rta maxsus) ta'limning majburiyligi; ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga ega ekanligi; davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi; ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va

tabaqalashtirilgan yondashuv; bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish; insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi; jamiyatda pedagog xodimlar ijtimoiy himoyasining kafolatlanganligi; ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish. Oxirgi yillarda ta'limning ijtimoiy roli ortib, dunyoning aksariyat davlatlarida ta'limning barcha turlariga bo'lgan munosabat o'zgardi. Ta'lim ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning bosh, yetakchi omili sifatida qaralmoqda.

Bunday e'tiborning sababi zamonaviy jamiyatning eng muhim qadriyati va asosiy kapitali – bu yangi bilimlarni izlash, egallash va nostandart qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan inson hisoblanadi. Shunday ekan, hozirgi davrda ta'lim shaxs va jamiyatni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 8 oktabrdagi F-4724-son farmoyishi bilan tashkil qilingan Ishchi guruh tomonidan oliy ta'lim tizimidagi holatni o'rganish natijalariga ko'ra, bir qator oliy ta'lim muassasalarida hali ham ilmiy-pedagogik salohiyatning pastligi, ta'lim jarayonlarini axborot-uslubiy va o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash zamonaviy talablarga javob bermasligi, ularning moddiy-texnika bazasini tizimli yangilashga ehtiyoj mavjudligi aniqlandi.

Oliy ta'lim tizimida o'z yo'nalishlari bo'yicha dunyoning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatish, o'quv jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarini joriy etish, ayniqsa, istiqbolli pedagog va ilmiy kadrlarni xorijning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalarida stajirovkadan o'tkazish va malakasini oshirish borasidagi ishlar yetarli darajada olib borilmayotganligi oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko'rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta'minlash maqsadida:

Oliy ta'lim tizimini kelgusida yanada takomillashtirish va kompleks rivojlantirish bo'yicha farmoyishda eng muhim vazifalar etib quyidagilar belgilandi: har bir oliy ta'lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari

oʻrnatish, oʻquv jarayoniga xalqaro taʼlim standartlariga asoslangan ilgʻor pedagogik texnologiyalar, oʻquv dasturlari va oʻquv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, oʻquv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar oʻtkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor taʼlim muassasalaridan yuqori malakali oʻqituvchilar va olimlarni faol jalb qilish, ularning bazasida tizimli asosda respublikamiz oliy taʼlim muassasalari magistrant, yosh oʻqituvchi va ilmiy xodimlarining stajirovka oʻtashlarini, professor-oʻqituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish; oliy maʼlumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli parametrlarini shakllantirish, oliy taʼlim muassasalarida oʻqitish yoʻnalishlari va mutaxassisliklarini istiqbolda mintaqalar va iqtisodiyot tarmoqlarini kompleks rivojlantirish, amalga oshirilayotgan hududiy va tarmoq dasturlarining talabalarini inobatga olgan holda optimallashtirish; taʼlim jarayonini, oliy taʼlimning oʻquv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va oʻqitish usullarini keng joriy etish, magistratura ilmiy-taʼlim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish asosida yanada takomillashtirish; yangi avlod oʻquv adabiyotlarini yaratish va ularni oliy taʼlim muassasalarining taʼlim jarayoniga keng tatbiq etish, oliy taʼlim muassasalarini zamonaviy oʻquv, oʻquv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan taʼminlash, shu jumladan, eng yangi xorijiy adabiyotlar sotib olish va tarjima qilish, axborot-resurs markazlari fondlarini muntazam yangilab borish; pedagog kadrlarning kasb mahorati sifati va saviyasini uzluksiz yuksaltirish, xorijda pedagog va ilmiy xodimlarning malakasini oshirish va stajirovkasini oʻtkazish, oliy taʼlim muassasalari bitiruvchilarini PhD va magistratura dasturlari boʻyicha oʻqitish, oliy taʼlim muassasalari va qayta tayyorlash va malaka oshirish markazlari oʻquv jarayonlariga yuqori malakali xorijiy olimlar, oʻqituvchi va mutaxassislarni keng jalb qilish; oliy taʼlim muassasalari ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliy taʼlimda ilm-fanni yanada rivojlantirish, uning akademik ilm-fan bilan integratsiyalashuvini kuchaytirish, oliy taʼlim muassasalari professor-oʻqituvchilarining ilmiy- tadqiqot faoliyati samaradorligi va natijadorligini oshirish, iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shugʻullanishga keng jalb etish; oliy taʼlimning maʼnaviy-ahloqiy mazmunini oshirish, talaba-yoshlarga

mustaqillik g'oyalariga, yuksak ma'naviyat va insoniylikning milliy an'alariga sodiqlik ruhini chuqur singdirish, ularda yot g'oya va mafkuralarga nisbatan immunitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish; oliy ta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini o'quv va ilmiy-laboratoriya bino va korpuslari, sport inshootlari, ijtimoiy-muhandislik infratuzilmasi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, oliy ta'lim ilm-fanining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha o'quv-ilmiy laboratoriyalarini zamonaviy asbob va uskunalardan jihozlash orqali yanada mustahkamlash; oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan jihozlash, oliy ta'lim muassasalari talabalari, o'qituvchilari va yosh tadqiqotchilarining jahon ta'lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish vazifalari belgilab berilgan.

#### **REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi; <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-ituv-30-09-2020>.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 8 oktabrdagi F-4724-son Farmoyishi. 3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi (O'RQ-637-son, 23.09.2020 y.) qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son).

3. YUKSAK MA'NAVİYATLİ AVLOD-UCHİNCHİ RENESSANS BUNYODKORLARİ. Наука и технология в современном мире, 2(3), 76-79.

4. Rahmonova, S. (2023). YANGI O 'ZBEKISTONDA MA'NAVİY-MADANIY ISLOHOTLAR. Current approaches and new research in modern sciences, 2(10), 40-43.

5. Rahmonova Sanoat Shuhrat kizi. (2024). HARMONY OF EDUCATION AND TRAINING. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И

ПРАКТИКА, 2(4), 366–375. извлечено от <https://universalpublishings.com/index.php/mpttp/article/view/5154>.

6. Rahmonova, S. (2024). THE REFORMS IMPLEMENTED IN NEW UZBEKISTAN ARE THE FOUNDATION OF THE THIRD RENAISSANCE. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(4), 394–399. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10969679>

7. Rahmonova Sanoat Shuhrat qizi, & Sodiqova Durdoni Abdu Soli qizi. (2024). THE ROLE OF THE FAMILY IN YOUTH EDUCATION. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(4), 664–674. извлечено от <https://universalpublishings.com/index.php/mpttp/article/view/5265>

8. Rahmonova Sanoat Shuhrat qizi, & Yo'ldasheva Marjona Muhammad qizi. (2024). ДОЛЗАРЬ ВОПРОСЫ СОЦИАЛЬНЫХ И ГУМАНИТАРНЫХ НАУК. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(4), 767–777. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11066266>

9. Rahmonova Sanoat Shuhrat qizi. (2024). USE OF SUSTAINABLE INNOVATION METHODS IN FIGHTING AGAINST THE INFLUENCE OF "POWER CULTURE". МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(5), 36–48. извлечено от <https://universalpublishings.com/index.php/mpttp/article/view/5481>

10. Rahmonova Sanoat Shuhrat qizi, & Yo'ldasheva Marjona Muhammad qizi. (2024). ДОЛЗАРЬ ВОПРОСЫ СОЦИАЛЬНЫХ И ГУМАНИТАРНЫХ НАУК. 11. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(4), 767–777. извлечено от <https://universalpublishings.com/index.php/mpttp/article/view/5312>

12. Rahmonova Sanoat Shuhrat qizi. (2024). THE ROLE OF SPIRITUALITY IN THE FORMATION OF HUMAN WORLD VIEW. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(6), 135–144. извлечено от <https://universalpublishings.com/index.php/mpttp/article/view/6315>